



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ» atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

## O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA KUZATILAYOTGAN MUAMMOLAR

**Abdreimova D.,**  
*NMPI stajyor-o'qituvchisi*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada maktab darsliklariga qo'yiladigan talablar va O'zbek tili darsliklarida kuzatilayotgan ayrim g'alizliklar haqida so'z boradi.

*Tayanch so'zlar:* darslik, metod, uzviylik, uzliksizlik

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: «Bugungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'laydi, bu borada amaliy choralarni ko'radi. Aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi»<sup>1</sup>, – deya ta'kidlaganlaridek, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohaga aloqador bo'lgani kabi til va uni o'qitish jarayoni bilan ham uzviy bog'liqdir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi axborot asrida ta'lim tizimida ham anchagina yangilanishlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarining o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati ortib bormoqda. Yaratilayotgan yangi darsliklar, o'quv elektron lug'atlari, tashkil qilinayotgan interaktiv darslar fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. Tilni o'qitish, xususan, davlat tilini o'qitishdan ko'zlangan maqsaddan kelib chiqib innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagoglar uchun yengilliklar beribgina qolmay, davr talabiga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishni talab qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrga, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bir qator islohatlar amalga oshirilib, yoshlarning zamon talabi darajasida bilim olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O'zbek tilini o'qitishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. O'quv darsliklari zamonaviy ta'lim standartlariga mos ravishda qayta nashr etila boshladi. Masalan: amaldagi 2-sinf O'zbek tili darsligi. Tuzuvchilar: Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova, Fayoza Raxmatova, Namoz Rasulov, Nargisa Yuldashevalar. Birinchi navbatda, mukammal dizaynni yaratish uchun o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda turli xil qiziqarli rasmlar,

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент, 2021. 292 б.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

## atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

ko‘zni charchatmaydigan ranglar tanlab olingen. Darslikning asosiy yutuqlaridan biri maxsus QR kodlarning o‘rnatalishi bo‘ldi. Bu dars jarayoniga qatnasha olmagan, yoki yaxshi o‘zlashtira olmagan o‘quvchilar uchun mavzuni o‘zlashtirishda, takrorlashda elektron darslikning yordamchi vosita bo‘lishini ta’minlaydi. Albatta, o‘qituvchilarning zimmasidagi yukni ancha yengillashtiradi. Shuningdek, darslik va Yozuv daftaridagi topshiriqlar ham bir biriga uyg‘un holda tuzilgan.

O‘qish va yozish savodxonligini oshirishga; mustaqil va mantiqiy fikrleshgaga; o‘quvchini charchatib qo‘ymaslikka qaratilgan. Boshqa sinflarning amaldagi darsliklari xususida bunday fikr yurita olmaymiz, afsuski. O‘zbekistonda ta’lim (o‘zbek tilini hisobga olmaganda) oltita tilda olib boriladi. Bu olti xil madaniyat, olti xil urf-odat, olti xil til deganidir. Ammo oltita o‘zga tilli maktablar uchun yaratilgan O‘zbek tili darsliklari bir xil. Ya’ni rus, qoraqalpoq, qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik sinflaridagi o‘quvchilar umumiy bir darslikdan foydalanadilar. Zero, turkiy tillar bir-biriga yaqin bo‘lganligi bilan rus tili ulardan tubdan farq qiladi. Shu boisdan qaysi til vakillariga o‘zbek tili o‘rgatilsa, ularning o‘z ona tilidan kelib chiqqan holda nimalarni oson o‘rganadi, qaysi mavzularni o‘rganish qiyinchilik tug‘diradi, shu jihatlariga diqqat qaratilsagina ta’limda ancha yutuqlarga erishiladi.

Bundan tashqari, O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi xalqaro standartlarga javob bermaydi. O‘zbek tili fan sifatida shakllangan davrda qanday metodika asosida o‘qitilsa, hozir ham shunday. Mashqni ko‘chirib yozish, qoidani yodlash kabi. O‘quvchini kreativ fikrleshgaga undaydigan, qiziqarli mashq va topshiriqlarni deyarli uchratmaymiz. Nahotki, O‘zbek tilini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad ko‘chirib yozishnigina biladigan avlodni tarbiyalash bo‘lsa?! Bunday bir xillikdan ,albatta, bola zerikadi. Natijada fanga nisbatan qiziqishi so‘nadi.

Darsliklarni yaratishda uzviylik va uzlusizlikka amal qilinmagan. Ya’ni 2-11-sinflar O‘zbek tili darsliklaridagi mavzular osondan murakkabga tamoyili asosida berilmagan. Mavzulararo integratsiya ta’minlanmagan. Ayrim darsliklarda hali o‘tilmagan mavzular yuzasidan topshiriqlar berilgan. Masalan: 6-sinf O‘zbek tili darsligida belgilash va jamlash olmoshlari haqida berilgan qoidaga to‘xtalib o‘tsak. «Belgilash va jamlash olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘sishmchalarini olib, gapda turli vazifalarni bajarib keladi. Hammaning bir istagi bor. Dunyoda hamma xursand va baxtiyor bo‘lib yashasin»<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> X.S.Muxitdinova,Ya.Avlakulov, D.A.Nuriddinova. O‘zbek tili darsligi.Toshkent «YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS» 2017-yil, 30-bet



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

## atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya



Belgilash va jamlash olmoshlari ham egalik va kelishik qo'shimchalarini olib, gapda turli vazifalarni bajarib keladi. Masalan: **Hammaning** bir istagi bor. Dunyoda **hamma** xursand va baxtiyor bo'lib yashasin.

**7-mashq.** Gaplarni o'qing. Olmoshlarning turi va qo'llanishini tushuntiring.

Gapda qo'llanilgan so'zlarning turli vazifa bajarib kelishi sintaksis bo'limida o'r ganiladi. Sintaksis bo'limi haqidagi mavzular esa, 9-sinfda yoritib berilgan. Tilshunoslik bo'limlari o'rtasidagi uzviylikka amal qilinmaganligi sababli o'quvchi uchun hali noma'lum va tushunarsiz jumla keltirilgan. Olmosh boshqa so'z turkumlari ornida almashib kela olganligi sababli ot so'z turkumi kabi egalik va kelishik qo'shimchalarini olib kelishi mumkin tarzida qoidani bayon qilish o'quvchi uchun tushunilishi birmuncha oson bo'lardi va ot so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni eslatib o'tish orqali mavzulararo integratsiya ham ta'minlangan bo'lardi, bizningcha. Ayrim darsliklarda qoidaning noto'g'ri berilganligini ham ko'r shimiz mumkin. 6-sinfda son mavzusining bayoniga diqqat qilamiz. «Ketma-ket kelib, ma'lum bir muddatgacha bo'lgan vaqt oralig'ini bildiruvchi sonlar orasiga tire (-) qo'yiladi. Masalan: 1441 – 1501-yillar, XIX – XX asr»<sup>3</sup>.



Ketma-ket kelib, ma'lum bir muddatgacha bo'lgan vaqt oralig'ini bildiruvchi sonlar orasiga tire (-) qo'yiladi. Masalan: 1441—1501-yillar, XIX—XX asr.


**2-topshiriq.** Matnni o'qing. Sonlarning ma'nosi va imlosini tushuntiring.

### Manguberdi jasorati

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarda tirening qo'llanishi bilan bog'liq 11 ta holat bor. Lekin vaqt oralig'ini bildiruvchi sonlar orasiga tire qo'yilishi bilan bog'liq qoida mavjud emas. Demak, ketma-ket kelib, ma'lum bir muddatgacha bo'lgan vaqt oralig'ini bildiruvchi sonlar orasiga defis (-) ishoraviy belgisi qo'yiladi.

7-sinf darsligining mualliflari so'zlarni tuzilishiga ko'ra 3 guruhga ajratgan. Lekin 3-mashqda tez-tez degan takror so'zning ham berilganligini ko'r shimiz mumkin. O'quvchilarda bu so'zni qaysi guruhga kiritamiz degan haqli savol tug'iladi.

<sup>3</sup> X.S.Muxitdinova, Ya.Avlakulov, D.A.Nuriddinova. O'zbek tili darsligi. Toshkent «YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» 2017-yil, 58-bet



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

## atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

### Bilib oling!

So'zlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma va juft bo'ladi. Sodda so'zlar bir o'zakdan, qo'shma so'zlar bir dan ortiq o'zakdan, juft so'zlar ikki o'zakdan yasaladi.

#### Sodda

shahar  
bunyodkor  
o'ynameq

#### Qo'shma

Oltintepa  
gulbeor  
guvohnoma

#### Juft

qarindosh-urug'  
uy-joy  
bordi-keldi

**2- mashq.** Matnni o'qing. Sodda so'zlarni aniqlang.

Yozda Oqtosh tog' yonbag'ridagi „Quyoshli“ oromgohida dam oldim. Oromgoh tog' bag'rida, soya-salginda joylashgan ekan. Tog' yonbag'ridagi archazorlar, sharqirab oqib turgan soy, baland-baland daraxtlar, toza havo bizga juda yoddi. Har kuni bolalar bilan futbol, voleybol, shaxmat o'ynadik, qiziqarli kitoblar o'qidik, sayohatlarga bordik. Oromgohdagagi turli to'garak-larga a'zo bo'ldik. San'atkorlar, darslik mualliflari, shoir va yo-zuvchilar bilan uchrashuvlar ham bo'lib o'tdi. Dam olish juda maroqli o'tdi.

**3- mashq.** Berilgan so'zlardan sodda so'zlarni ajratib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Shahar, poytaxt, maktab, katta-kichik, ilmli, bog'bon, qo'lqop, belbog', ota-on, chiroyli, baland-past, boychechak, ertapishar, asalari, tinchliksevar, kitob, yeryong'oq, tez-tez.

Tinish belgilari va ularning qo'llanishi bilan bog'liq dars soatlarining ajratilmaganligi. O'quvchilarning tinish belgilari va ularning qo'llanishi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligini pedagoglar yozma ishlarni, nazorat ishlarni tekshirish davomida guvohi bo'lishadi. Hatto ba'zi tinish belgilarining qanday o'rirlarda kelishi haqida o'quvchilar umuman bilishmaydi. Vaholanki, yozma nutqning to'g'ri shakllanishida tinish belgilari asosiy vazifani bajaradi.

Mavzularning ilmiyligi. Yaqinda bir o'quvchim: «Ustoz, nisbatlarning bizga qanday foydasi bor? Kelajagim uchun-chi? Men tanlayotgan sohaning yetuk mutaxassis bo'lishimda qanday vazifani bajaradi?», – deb so'rab qoldi. Haqiqatdan ham mavzular ilmiylikka asoslangan, real hayot bilan bog'lanmagan, o'quvchilarning mustaqil fikrlesh salohiyatini oshirishga yo'naltirilmagan. Mashqlar har bir mavzu uchun yoki to'rtta. Shartlar bir xil ya'ni ko'chirib yozing, aniqlang qabilidagi bo'lib, faqat o'sha darsdagi qoidaning o'rganilishiga qaratilgan.

O'quv jarayonining sof o'zbek adabiy tilida tashkil qilinmayotganligi. O'qituvchi har tomonlama o'quvchilarga namuna bo'ladi. Shu o'rinda nutqi bilan ham. Lekin ming afsuski, ayrim pedagoglar darsni o'zi mansub bo'lgan huhud shevasida tashkil qilishi hech kimga sir bo'lмагan haqiqatdir. O'zi to'g'ri so'zlay olmaydigan pedagog qanday qilib butun bir sinfga til o'rgatadi?! Qanday qilib o'quvchidan to'g'ri nutq tuzishni talab qila oladi?! O'qituvchilar darslarni tashkil qilishda faqat an'anaviy ta'lim shakliga suyanib qolganligi. Ya'ni yangi mavzu o'qituvchi tomonidan og'zaki tushuntiriladi, o'quvchilar berilgan savollarga kitob titib javob beradi, mustahkamlash uchun kitobdagi mashqlarni ko'chirib yozadi. Zerikkan o'quvchi darsdan, fandan uzoqlashadi. Qolaversa, o'qituvchi o'z ustida



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ» atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiý-teoriyalıq konferenciya

muntazam ishlamay, dunyo xabarlaridan, ta’limdagı o‘zgarishlardan bexabar qoladi. Darsni qiziqarlı va samarali tashkil etish, bolani darsga jalb qilish, fan yuzasidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalarnı shakllantırısh uchun ham dars jarayonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kun ta’lim tizimida dolzarblik kasb etmoqda.

Yuqorida sanab o‘tganlarımız o‘quvchilar bilim va savodxonligini oshirishda kuzatilayotgan va o‘z yechimini kutayotgan muammolar edi. Agar ushbu muammolar bartaraf qilinsa, ko‘zlangan maqsadga erisha olamiz va til o‘qitish tizimi xalqaro standartlarga javob bera oladi deb o‘ylaymiz.

## Foydalangan adabiyot:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. 292-б.
2. X.S.Muxitdinova,Ya.Avlakulov, D.A.Nuriddinova. O‘zbek tili darsligi.Toshkent «YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS» 2017-yil, 30-b
3. Sh.Bo‘ronova.Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili darslarini tashkil etishning samarali usullari:metodik qo‘llanma. <https://uz.denemetr.com>